

INGLIZ TILIDA SLENGNING ETIMOLOGIYASI VA IJTIMOIIY VAZIFASI

ADChTI magistranti Mamatova Nargiza Numonovna
f.f.f.d. (PhD) Ibragimova Gulchexra Madaminjanovna
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11082105>

Zamonaviy taraqqiyot tamoyillari asoslangan holda "talim tizimini takomillashtirish, sifatli talim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish" alohida takidlangan. Bu borada ingliz tilida qisqartma so'zlar maqomidagi slenglarning lingvistik tadqiqi ingliz tili tizimida o'rganish uchun xususiylilik belgilari jihatidan tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda ingliz tilining turli areallari kesimidagi jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari nutqida siyosiy, madaniy, mafkuraviy, xarbiy, texnologik hamda boshqa qator omillar sabab yangidan-yangi sleng birliklari paydo bo'lmoqda. Natijada, sleng amalda jamiyatning barcha sohalariga kirib bormoqda va bunday birliklarning katta qismi leksikograflar tomonidan qayd etilib, ko'plab sleng lug'atlarining paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda. Ushbu holat sleng tadqiqi jarayonida yangicha yondashuvlarni talab etadi. Jumladan, sleng tadqiqida birinchidan, sleng lug'atlarida kodlashtirilgan sleng va adabiy til birliklarini denotat bo'yicha sinonim xisoblab, so'zning asosiy adabiy va yasama slengli ma'nolari o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash, ikkinchidan adabiy tildagi so'zning sleng nominasiyasidagi imkoniyatlarini baholash, uchinchidan lug'atlarda ko'p uchraydigan sleng birliklarini ajratib olib, ularni struktural-semantik jihatdan tasniflash, to'rtinchidan tasnif qilingan sleng birliklarini ekstralingvistik matnlar doirasida tahlil qilish sleng paydo bo'lishi mohiyatini to'la anglashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Tabiiy tilning lug'at tarkibi doimiy harakatda, dinamikada bo'lib, u doimo yangi leksik va frazeologik birliklar bilan to'ldiriladi. Xuddi shu narsa zamonaviy ingliz tilining noadabiy darajasida sodir bo'ladi. Tilning lug'at boyligini noadabiy lug'at bilan to'ldirishning asosiy usuli - semantik usul bo'lib, bu so'zlarning semantik hajmining, unda so'zlashuv leksik-semantik variantining paydo bo'lishi tufayli adabiy me'yorning kengayishiga olib keladi. Gap ma'noning metafora va metonimik ko'chishi, so'z ma'nolarining torayishi va kengayishi, umumlashtirish va aniqlashtirish, ma'noning yomonlashuvi va takomillashuvi haqida bormoqda. Shunday qilib, ingliz slengining lug'ati dinamik tizim bo'lib, u doimo yangi slengizmlar va yangi ma'nolar, ham adabiy so'zlar, ham sleng birliklari bilan boyib boradi. Zamonaviy ingliz tilida sleng so'zlashuv tilining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning so'z boyligining muhim qismini tashkil qiladi. Ingliz slengi - bu ma'lum bir til guruhida amalga oshiriladigan ingliz tilining quyi tizimlaridan biri. Sleng adabiy tilning antitezisi sifatida tan olinadi va qisman jargon, professional so'zlar va so'zlashuv tili bilan ajralib turadi.

Ingliz tilida sleng lug'atini to'ldirishning asosiy usuli - bu ma'noning metaforik va metonimik ko'chirish, so'zlarning ma'nolarini toraytirish va kengaytirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, ma'noning yomonlashishi va takomillashtirilishi. Ingliz tili jargoni ingliz tilining ajralmas qismi bo'lib, ingliz lingvistik va madaniy hamjamiyatining so'zsiz va ajralmas qismi hisoblanadi. Boshqa ijtimoiy dialektlar va adabiy me'yorlar bilan bir qatorda, ular bilan yaqin aloqada bo'lgan jargon har doim ma'lum bir aniq ko'rinadigan til tizimi sifatida harakat qilgan va harakat qilgan. Slang - cheklangan miqdordagi odamlar tomonidan qo'llaniladigan tilning ijtimoiy xilma-xilligi bo'lib, til standartidan o'zining maxsus tuzilishi (fonetika, grammatika, leksema tuzilishi va semantikasi) bilan farq qiladi. Til me'yori - bu namunali,

me'yorlashtirilgan til bo'lib, uning me'yorlari "to'g'ri" va umumjahon majburiy deb qabul qilinadi va dialekt va so'zlashuv so'zlariga ziddir. Slang ijtimoiy guruh tilini bilmaganlar uchun tushunarsiz qilish uchun ishlatiladi.

Ingliz tilidagi jargonining structural-semantik turlari xorijiy va o'zbek tilshunoslari tomonidan o'rganilgan. Jumladan, xorijiy tilshunoslardan A.S.Chunki, G.Bredli, O.Espersen, J.Grinok va K.I. Kitgrij, G.L.Menken, J.Myurrey, U.Lebou, L.Sudek, M.Lenert, J.Leyter; o'zbek tilshunoslaridan SH.H.SHahobiddinova, X.Jamolxonov, B.T.Sotvoldiyev va boshqalar.

"Sleng", "jargon" va "argo" atamalarining boshlang'ich ma'nolarini aniqlash uchun ularning dastlabki manbalariga e'tiborni qaratish zarur deb hisoblaymiz. "Argo" fransuz tilidan olingan bo'lib, "argot" – qulflangan, yopib qo'yilgan degan ma'nolarni anglatadi, huddi shunday "jargon" so'zi ham fransuz tilidan olingan bo'lib, "jargon" - ma'lum bir ijtimoiy guruh a'zolarining o'zaro muloqot yuritishida xizmat qiladigan nutq turi deb qaraladi. "Sleng" so'zi esa ingliz tilidan olingan bo'lib, "slang" – jargon degani va u tilshunoslikka aynan ingliz tilidan kirib kelgan. [1, 419] Bu so'zlar (sleng, argo, jargon) odatda sinonim so'zlar deb qaraladi. Lekin ularning kelib chiqishi va qo'llanilishini chuqur o'rganilib qaralsa, ular o'rtasida juda katta farqlar borligiga amin bo'lasiz. Argo – jargondan qaysidir darajada maxfiy til (aynan chetdagi begonalar tushunmasligi uchun yaratilgan ma'lum bir guruh tili) bo'lganligi bilan ham farq qiladi.

Sleng o'z navbatida argo va jargonga xos birliklarni hamda ularning ma'nolarini metaforik jihatdan o'zgartirib va kengaytirib o'zlashtirishi mumkin. Bu yerda nutqning ekspressiv, so'z o'yini va zamonaviy neologizmlarga boy sun'iy shakllantirilgan turi haqida gap bormoqda. O.S.Axmanovning lug'atida sleng atamasiga ikkita ta'rif berilgan:

1. Kasbiy nutqning og'zaki varianti.
2. Ma'lum kasbiy yoki ijtimoiy guruhning og'zaki variant elementlari bo'lib, ushbu guruhdagi odamlar nutqidan adabiy til yoki umumiy nutqqa to'g'ridan-to'g'ri, ularga aloqasi bo'lmagan holatda kiradi. Natijada sleng tilning ushbu ko'rinishida muayyan emotsional ekspressiv bo'yoqqa ega bo'ladi. [1, 47]

Sleng nutq birliklari va ularning sinonimlari o'rtasidagi o'zaro munosabat ko'pincha metaforik va nometaforik ifoda usullari sifatidagi o'zaro munosabat deya tasavvur qilinadi. D.S.Lixachevning ta'kidlashicha, sleng birliklari ularning adabiy tildagi sinonimlariga qaraganda voqelikni "konkretlash" va "moddiylashtirish", insonni "mexanizasiyalash (narsaga aylantirish)" va "hayvonga aylantirish" xususiyatlarini o'zida ifoda etadi. [47-100]

V.A.Xomyakov adabiy til birliklarining slengdagi sinonimlarini yasashning semiologik mexanizmining umumiy qolipini taklif qiladi: [4, 47]

- 1) bir predmetning o'rniga boshqa predmetni (uning biror belgi yoki xususiyatini) ifodalash;
- 2) bir harakat o'rniga boshqa harakatni (uning yo'nalishini yoki natijasini) ifodalash;
- 3) bir holat o'rniga boshqa holatni (uning xususiyatini) ifodalash;
- 4) predmetning biror belgisini aytish o'rniga uning boshqa belgilarini (qo'shimcha sifatleri yoki xususiyatlarini) ifodalash.

Shunday qilib, V.A. Xomyakovning fikricha, adabiy tilning sinonimik birliklari bilan qiyoslaganda, sleng nutq birliklarining yuzaga chiqaradigan o'ziga xos xususiyati, ularning implitsit ma'noga egaligidir. Masalan, adabiy tildagi **"face"** so'zining slengdagi sinonimi **"biscuit"** yuzning ko'rinishini [4, 12]; bu so'zning boshqa bir sinonimi **"coon"** yuzning

rangini, uning yana bir sinonimi “**pan**” esa yuzning tuzilishi va shakli kabi qo‘shimcha belgilarni ifodalaydi.

References:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов, – М.: SE, 1969. – С: 419
2. Копыленко М.М. “Основы этнолингвистики”ю – Алматы: Евразия, 1995. – С. 47
3. Лихачев Д.С. Черты первобытного примитивизма воровской речи. // «Язык и мышление», т.III-IV. – М.-Л., 1935. – С. 47-100.
4. Хомяков В.А. Введение в изучение слэнга — основного компонента английского просторечия Изд. 2. URSS. 2009. 104 с. ISBN 978-5-397-00274-5.

INNOVATIVE
ACADEMY